

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SO‘Z QUDRATI.

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 2- kurs talabalari.

Abdukarimova Muxtasar Sohodillo qizi.

abdukarimovamuxtasar17@gmail.com.

Mahmudova Sarvinoz Ozodbek qizi.

sarvinozm975@gmail.com

Annotatsiya

Alisher Navoiyning asarlarida so‘zlarga berilgan ilmiy, badiiy talqinlari, so‘zning hayotimizdagi o‘rni, so‘z qudrati shoir tafakkuri bilan o‘ziga xos badiiy nuqtai nazardan tahlil qilish mazkur maqolaning maqsadi hisoblanadi. Navoiy asarlarida so‘z va uning imkoniyatlarini o‘rganish, so‘zga butun borliq ibtidosi sifatida urg‘u berilishini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, adabiyot qudrati, so‘z, ilohiy ne‘mat, so‘z ma‘nosi, so‘z gavhari, so‘z sehri, nutq, ijodkori, so‘z ustasi.

KIRISH

Asrlar, zamonlar osha so‘z o‘z qudrati va ahamyatini yo‘qotmagan holda ijtimoiy jihatdan yuksalib bormoqda.

Fikrlarimiz so‘z vositasi yordamida yuzaga chiqadi, insonlarga anglatiladi, insonlar tomonidan anglaniladi. Har qanday til va adabiyot ham so‘zlardan tashkil topadi, rivojlanadi, so‘zlar orqaligina tafakkur harakatlanadi, qadr-u qimmat kasb etadi.

Darhaqiqat, so‘z nayzadan o‘tkir degan gap bor. Nayza hal qilolmagan ishni so‘z qudrati bilan hal qilish mumkin. So‘z nimanidir anglatish, ko‘rsatish, ifodalash bilan xizmat qiladigan, eng kichik nutq birligi hisoblanadi. So‘zning vujudga kelishi ilohiydir. So‘z badiiy adabiyotning bosh ish quroli, borliqni ifodalovchi manbadir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot so‘z sanati deb ta‘riflanadi.

Dunyoda shunday so‘zlar borki ular beo‘xshov, xunuk, qo‘pol so‘zlardir. Ular bir insonni tili-yu dilidan chiqmay turib ham bir inson dil ko‘z gusini chil-chil holatga keltirishi mumkin. Har bir inson so‘z kuchi ifodasini anglashi zarur. Sababi birgina yolg‘on va hazil so‘z bilan butun dunyoni yo‘q qilishi mumkin. So‘z - qudratli kuch demakdir. Kuch bilan dunyoni egallab olinishi hech narsa emas. Har bir so‘zning mazmuni qop- qop tillalarga ham teng bo‘la olmaydi. So‘zimizni, muomalamizni o‘z sur‘at -siyratimiz timsoli deb tasvirlaydigan bo‘lsak hech qanday farq talab qilmaydi.

Uzoq asrlar davomida so‘z tarifiga berilgan diniy-tasavvufiy, ilmiy va badiiy izohlar til yoki nutq birligi sifatida o‘z qirralarini keng imkoniyatlarini ifoda qudratlarini tavsiflashga yo‘l ochdi. O‘tgan ming yillikda “Shams -ul millat” nomiga

munosib topilgan, nafaqt o‘zbek balki butun turkiy madaniy muhitning dahosi va mutafakkiri hisoblangan hazrat Alisher Navoiyning so‘z bobidagi fikrlari minglab tahsinlarga loyiqdir. Alisher Navoiy so‘z haqida juda noyob fikrlar keltirganligini uning asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy so‘z mulkini sultonidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mumtoz adabiyotda so‘zni muqaddasligi va unga yaratganning buyuk mo‘jizasi va ulug‘ ne‘mati sifatida qaralishini Navoiy asarlarida ko‘rishimiz mumkin.

So‘z qudratini buyukligini hazrat Alisher Navoiyning “Xamsa”sini birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” dostonida butun 13-14 bobni so‘z tarifiga bag‘ishlagan. Shoir ushbu boblarda so‘zni buyukligini “kun” (yaral) so‘zini olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganligini isbotlaydi. Dunyo yaratilishida birinchi so‘z yaralganligi keyin esa yaral so‘zidan butun olam yaralganligini bilib olishimiz mumkin. So‘z tanadagi madanning qimmatbahi javohiri ekanligini ta’kidlaydi: “So‘z ta’rifdirkim, bashar vujudi sehrining kavokibi jahontobi va inson zoti madanining javohiri serobidir. [Hayrat ul-abror] Ya’ni “Odamzod vujudi osmoni jahonning yoritar yulduzlari va inson zotiga xos bo‘lgan koning behisob bolgan so‘z javhari bo‘lgan so‘z ta’rifida”.

Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida so‘z haqida maqol, hikmatlar keltirgan.

Masalan,

“Og‘ziga kelganni demoq nodonning ishi”,

“Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”.

Shoir nazarida so‘z o‘likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so‘z ila elga o‘limdin najot,

Ham so‘z ila topub o‘likdan hayot. “Mahbub ul-qulub”

To‘g‘ri, ba‘zan bir so‘z bilan inson jonsiz o‘likka yoki tirik vujudga aylanishi mumkin. Navoiy ta’kidlashicha, shirin so‘z bilan ko‘p ishlar amalga oshadi. Biz birgina so‘z insonlarni kuldirishimiz ham, yig‘latishimiz ham mumkin. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul- lug‘atayn” asarida so‘z qudratiga yuksak baho berib, so‘zning qadri naqadar baland ekanligini ta’kidlaydi:

“So‘z bir dur bo‘lib, uning daryosi ko‘ngildur, ko‘ngil shunday o‘rinki, unda mayda va yirik ma’nolar to‘plangandir. Bu shunga o‘xshaydiki, gavhar daryodan g‘avvos orqali chiqariladi. So‘z duri ham ko‘ngildan so‘zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharifiga erishadi. Nechunki, gavhar qiymat yuzasidan juda ko‘p darajalarga bo‘linadi, hatto bir dirhamdan yuz dirhamgacha desa ham bo‘ladi. “Muhokamat ul - lug‘at tayn”

“Xamsa” asarining “Layli va Majnun” dostoni 5 - bobida so‘zni ajoyib gavhar mavj urib turgan dengizga o‘xshatadi:

Ey so‘z ne balo ajab guharsen,

Gavhar neki, bahri majvarsen. “Layli va Majnun”

So‘z gavharga o‘xshaydi. Gavhardan qancha foydalansak, shuncha so‘z boyligimiz oshib, fiklashimiz kengayadi. Gavharni esa qayerdan terishni bilishimiz darkor. So‘z shunday qudratki, bu qudratni behudaga sarflamaslik kerak.

Shoirning “Xamsa”siga kiruvchi 4-doston “Sab’ai Sayyor”da ham so‘z haqida qarashlar juda ko‘p keltirilgan. Dostonni 5-bobida so‘zga shunday ta’rif beradi:

So‘z kelib avval-u jahon so‘ngra, Ne jahon kavin ila makon so‘ngra. Alloh -Alloh, ne so‘zdurur bu so‘z,

Mundin ortiq bo‘lumu so‘z? “Sa’bai sayyor”.

Yuqorida aytilgandek, avval so‘z paydo bo‘lgan keyin esa olam yaratilgan, olamda so‘z makon topgan. Shoir bu misralar orqali so‘zga juda katta yuksak baho bergan. So‘z qudrati kuchini ko‘rsatib bergan.

XULOSA

Hazrat Alisher Navoiy so‘z haqida bildirgan fikrlarining yeg‘indisi va xulosasi sifatida so‘z - ulug‘ ilohiy ne‘mat, so‘z ko‘ngil sadafning gavhari, so‘z-najot, dunyo ibtidosi, so‘z mavjidek belgisidir. So‘z insonlarga berigan eng oliy ne‘mat boshqa jonzotlardan ajralib turuvchi vosita hamdir. Navoiyning fikriga ko‘ra til xanjar bolsa, so‘z xanjarni bezab turgan gavhardir. Inson til va nutqi bilan aziz hisoblanadi. Tiliga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir. So‘z o‘zining ko‘p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo‘polligi, maqsadga muvofiq bo‘lmasligi so‘zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Alisher Navoiyning so‘z boyligi va asarlarida qo‘langan so‘zlar yuzasidan O‘tkir Hoshimovning fikrlarini keltirishimiz mumkin.

Pushkin asarlarida 21ming 197ta so‘z ishlatgan. Shekspir esa salkam 20mingta Navoiy bo‘lsa 1million 378ming 600ta so‘z ishlatgan. Navoiy so‘zning poyonsiz kuch qudratiga shunday baho beradiki, uning lisoniy qarashlari va tafakkur xulosalari markazida turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Navoiy A. Muhokamat ul-lug‘at tayn. – T.: Tafakkur, 2014.
2. Navoiy A. Hayrat ul-abror –T.: SMI-ASIA, 2009.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub – Tosh.: Yoshlar nashiryot uyi, 2018.
4. Navoiy A. Tanlangan asarlar, Layli va Majnun. – T.: SMI-ASIA, 2009.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik darsligi – T.: Tamaddun, 2018.
6. Navoiy A. Tanlangan asar, Sa’bai sayyor. – T.: SMI-ASIA, 2009.
7. Navoiy A. Hayrat ul-abror. www.uz.com. Kutubxonasi
8. Rahmonov M. So‘z va salomatlik. – F.: 2022.
9. Navoiy A. Asarlar tilining izohli lug‘ati. – T.: Fan, 1985.
10. Navoiy A. Saddi Iskandariy. – T.: Fan, 1993.
11. www.kh-davron.uz.
12. Library.navoiy-uni.uz.